

**TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘LLARI,  
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI  
(BAXMAL TUMANI MISOLIDA)**

*Xasanov Xojimurod To‘ychiboy o‘g‘li  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugunga kelib, sanoatda o‘z o‘rniga ega bo‘lib ulgurgan hamda jamiyatning tub ongiga singib borayotgan turizm sohalari haqida so‘z yuritiladi. Ushbu maqolada Jizzax viloyatining Baxmal tumanida turizmni rivojlantirishning yangi istiqbolli rejalari hamda tumanda mavjud muammolar, turizmni rivojlantirishga g‘ov bo‘ladigan to‘siqlar va ularning yechimlari xususida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘z:** O‘smat shaharchasi, Molguzar tog‘lari, Turkiston tizmasi, turistik klasterlar, diskont dasturlarni o‘tkazish, dor yo‘li, tog‘ mehmonhxonalar, g‘or turizmi, qishloq uylari, qishloq restoranlarini.*

**PROSPECTIVE WAYS, PROBLEMS AND SOLUTIONS OF TOURISM  
DEVELOPMENT (IN THE EXAMPLE OF BAKHMAL DISTRICT)**

*Xasanov Xojimurod To‘ychiboy o‘g‘li  
Student of Chirchik State Pedagogical University*

***Abstract:** This article talks about tourism sectors that have already gained their place in the industry and are becoming embedded in the basic consciousness of the society. This article discusses the new promising plans for the development of tourism in the Bakhmal district of the Jizzakh region, as well as the existing problems in the district, obstacles to the development of tourism and their solutions.*

***Key words:** Osmat town, Molguzar mountains, Turkestan ridge, tourist clusters, discount programs, gallows road, mountain hotels, cave tourism, rural*

*houses, rural restaurants.*

Ma'lumki, bugungi kunda dunyoning turli rivojlangan mamlakatlari, shu bilan birga iqtisodiy qoloq davlatlar Turizmning u yoki bu servis xizmatlarini yo'lga qo'yish orqali, o'zining iqtisodiy barqarorligini tiklashga harakat qilimoqda. Turizm sohasini "chiqindisiz sanoat" deb atash mumkin. Bunga sabab turizmda tabiiy resurslardan oqilona va zararsiz foydalanish mumkin.

O'zbekistonda ham turizmning ko'plab turlari rivojlantirilmoqda. Xususan, Butunjahon turizm va sayohatlar bo'yicha kengashi (BTSK) tomonidan berilgan bahoga ko'ra, O'zbekiston sayyohlar tashrifi bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 150-o'rinni egallaydi. Shuni alohida takidlash kerakki, O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, xushmanzara dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Ana shunday maskanlardan biri Jizzax viloyatining Baxmal tumanidir.

Baxmal tumani G'allaorol, Zomin tumanlari, Samarqand viloyati va Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 1,86 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 112,500 ming kishi. Baxmal tumanida 1 ta shaharcha (O'smat) va 12 qishloq fuqarolari yig'ini (Barlos, Baxmal, Bog'ishamol, Gulbuloq, Mo'g'ol, Novqa, Oyqor, Oqtosh, Sangzor, Tongotar, Uzunbuloq, Qatartol) bor. Markazi - O'smat shaharchasi. O'smat shaharchasidan Jizzax shahrigacha masofa 70 kmni tashkil qiladi. Tuman hududi, asosan, tog' oldi tekisliklari va tog'lardan iborat. Baxmal tumanining janubiy qismida Turkiston tizmasi va uning shimoli-g'arbiy tarmog'i - Molguzar tog'lari joylashgan (eng baland joyi 2621 m). Molguzar tog'lari bilan Turkiston tizmasi oralig'ida Sangzor vodiysi bor [3].

Mustaqillikdan keyingi yillarda turizmga bo'lgan e'tiborning o'sishi, Baxmal tumanida ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Qishloq turizmini rivojlantirishga

aloxida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizning turistik salohiyati mazkur soha rivojlangan mamalakatlar kabi yetarli resurslarga ega. Mavjud imkoniyatdan unumli foydalanish uchun mintaqalardagi turistik resurslarni yanada yaxshiroq o'rganish zarurligini keltirib chiqaradi. Ammo resurslar mavjud mintaqalardagi ijtimoiy vaziyatlar esa soha oldida turgan va hal qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalarni tadqiq etishni yuzaga chiqaradi. Ushbu vaziyatda shuni unutmaslik kerakki, har bir hudud o'zining turli urf-odatlarini saqlab qolgan. Qishloq hududlarini rivojlantirishning yana bir yo'li sifatidagi biz fikr yuritayotgan qishloq turizmida ham xalqaro tajribalardan unumli foydalanish chorasi sifatida investisiyalarni jalb qilish usulini ham ko'rib o'tishimiz kerak hisoblanadi. Bu sohada faoliyat yuritayotgan yoki rejalashtirayotgan subektlar investisiyalar loyihalarini ham yaratishi ularning faoliyatini moliyalashtirish manbasi bo'lishiga erishish mumkin. Shaharlashuv jarayoni rivojlangan hududlardagi aholi qatlamlarini dam olishning ekologik toza hududlarda tashkil etish imkonini beruvchi soha turiga homiylik qilish hamda daromad olish imkoniyatini beruvchi tizimga taklif etish lozim. Xalqaro doiradagi bu tizimda turistik klasterlar tizimi ham faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son Farmoni ichki turizmni jadal rivojlantirishni taminlagan qarorlaridan biri bo'ldi. Unga ko'ra hududlarning turistik obyektlari tumanlar kesimida o'rganilishi hamda muammolarini aniqlash va ularga yechim izlash uchun juda katta qadam bo'ldi. Unga ko'ra Baxmal tumanidagi turistik diqqatga sazavor joylar muammoli yerlari bilan o'rganilib chiqildi. Ichki turizm rivojlanishi uchun yuqori salohiyatga ega bo'lgan tumanlar va shaharlar aniqlandi. Bu qatorda baxmal tumanining Novqa qishlog'ida joylashgan Novka ota ziyoratgohlaridagi ko'p yillik chinorlar va buloqlar hamda Zomin davlat qo'riqxonasidagi noyob toshlar, Muzbuloq qishlog'idagi "Qirqqiz" Zomin davlat qo'riqxonasi va "Tosh kuyov" Zomin davlat qo'riqxonasi, Ettikechuv qishlog'idagi Noyob shaklli toshlar, Mugol qishlog'idagi

“Bog‘i major” o‘rmoni, Sangzor daryosining boshlanishida kabilar tabiiy turistik ya‘ni kelib ko‘rish mumkin bo‘lgan joylar ro‘xatiga qo‘shildi. Bu ro‘yhat tarkibiga ushbu hududlarga olib boradigan yo‘llar o‘rganilganda Ettikechuv qishlog‘I va Mugol qishlog‘idagi yo‘llar qoniqarsiz deb topilgan bo‘lsa Novka ota ziyoratgohi va Muzbuloq qishlog‘idagi yo‘llar turistlarni tashish uchun qoniqarli deb topildi [2].

Baxmal tumanida joylashtirish vositalari, jamoat ovqatlanish punktlari, sanitariya-gigiyena uzellari, transport vositalari, madaniy meros obyektlari va boshqa diqqatga sazovor joylarni inventarizatsiya qilish va xizmat ko‘rsatishga tayyorlash; Yo‘l-ma‘lumot ko‘rsatkichlarini va boshqa turistik navigatsiya ko‘rsatkichlarini o‘rnatish va yangilash; turistik infratuzilma obyektlarida turli madaniy-ko‘ngilochar tadbirlarni, shuningdek diskont dasturlarni o‘tkazish kabi dasturlar yaxshi yo‘lga qo‘yilmagligini alohida takidlab o‘tish kerak. Bundan tashqari ushbu hududda tog‘larning mavjudligi tog‘ turizmini rivojlantirish imkonini ham beradi [1]. Yaqin kelajakda Baxmal tumanida joylashgan Turkiston tog‘ tizimidagi tog‘larda sayohatchilar uchun dor yo‘li (kanatka) ni ishga tushirish uchun hududning tabiiy obyekti va omillari yetarlichadir. Baxmal tog‘larida dunyoning sanoqligini joylarida mavjud bo‘lgan tog‘ mehmonhxonalarini tashkil etish ushbu hududga keluvchlar sonini anchagini oshirishi mumkin. Turkiston tog‘ tizmasidagi katta va kichik g‘orlarning mavjudligi G‘or turizmini yo‘lga qo‘yishga imkoniyat beradi. Yaqin bir ikki yil ichida Baxmal tumanida Tog‘ dachalarining ko‘payganligini ko‘rish mumkin. Baxmal tumanidagi qishloqlarda qishloq uylarini tashkil etish mumkin. Har bir hududning o‘ziga xos tamlari mavjudligini hisobga olinadigan bo‘lsa, Baxmal tog‘ etaklarida eski qishloq restoranlarini tashkil etish mumkin. Bunda qadimda mavjud bo‘lgan uy ro‘zg‘or buyumlari hamda o‘sha davr muhitini yaratish orqali erishish mumkin.

Xulosa o‘rnida shularni aytish mumkinki, Baxmal tumani o‘zining tabiiy va tarixiy jihatdan turizmni rivojlantirish uchun yetarlicha resurslarga egadir. Ammo hozirgi kunda ulardan juda kam foydalanilmoqda, bu esa hududda faqatgina ichki turizmningina biroz rivojlanganligini ko‘rish mumkin. Yuqoridagi rejalar va

muammolarga yechim topilsa hududning turizm industuriyasi rivojlanadi bu esa o'z navbatida aholi uchun bo'sh ish o'rinlarining yaratilishiga olib keladi.

Baxmal tumanidagi aholi asosan chorvachilik va dexqonchilik bilan shug'ullanadi. Turizm Industuriyasining kirib kelishi axolining ijtimoiy hayotini yaxshilash bilan birga ularning yub ongini rivojlantirishga olib keladi va integratsiyalashuvni tezlashtiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Axmedov I., A.A.Allabergenov "Turizm faoliyatini tashkil etish" .:T. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati".-2004.
- 2.O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; Samarqand iqtisodiyot va servis institute. "Turizm: Nazariya va amaliyot" .:T.-2018.
- 3.[https://uz.wikipedia.org/wiki/Baxmal\\_tumani](https://uz.wikipedia.org/wiki/Baxmal_tumani).